ISSN: 2181-4341, IMPACT FACTOR (RESEARCH BIB) – 9.145, SJIF – 5,431

O‘zbekiston Respublikasi Oliy talim, fan va innavatsiyalar vazirligi

Osiyo xalqaro universiteti

Yusupbayev Islom Bahodir o‘g‘li,

O‘R HX va MUning Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va harbiy aloqa instituti vzvod komandiri, mayor

HARBIY-PEDAGOGIK FAOLIYATDA PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARNI QO‘LLASH USLUBIYATI VA UNING O‘ZIGA XOS JIHATLARI

Annotatsiya: Maqolada bugungi kunda ta’lim jarayonida va xususan harbiy-pedagogik faoliyatning samaradorligini oshirishda pedagogik texnologiyalarning ahamiyati va roli, ularning asosiy shakllari va zamonaviy sharoitlarda qo‘llash uslubiyati bo‘yicha amaliy tavsiyalar yoritilgan.

Kalit so’zlar: pedagogik texnologiya, interfaol uslublar, o‘qitish uslubi, pedagogik jarayonni loyihalashtirish, kafolatlangan natija, optimallashtirish.

Аннотация: В статье описаны значение и рол педагогических технологий в образователном протсессе и в частности в повышении эффективности военно-педагогической деятелности, их основные формы и практические рекомендатсии по методике применения в современных условиях.

Ключевие слова: педагогическая технология, интерактивные методы, метод обучения, проектирование педагогического протсесса, гарантированный результат, оптимизатсия.

Abstract: The article describes the significance and role of pedagogical technologies in the educational process and in particular in increasing the effectiveness of military pedagogical activities, their main forms and practical recommendations for methods of application in modern conditions.

Keywords: pedagogical technology, interactive methods, teaching method, design of the pedagogical process, guaranteed results, optimization.

KIRISH

Zamonaviy ta’lim tizimida, xususan, harbiy ta’lim sohasida tub islohotlar amalga oshirilmoqda. Globallashuv jarayonlari, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining jadal rivojlanishi hamda zamonaviy harbiy faoliyatning murakkablashuvi natijasida harbiy mutaxassislarni tayyorlashga qo‘yiladigan talablar keskin ortmoqda. Shu bois harbiy-pedagogik faoliyatda an’anaviy o‘qitish usullaridan voz kechib, innovatsion pedagogik texnologiyalarni joriy etish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

Ilmiy tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, zamonaviy pedagogik texnologiyalar harbiy ta’lim tizimida nafaqat bilim berish samaradorligini oshiradi, balki tinglovchilarning mustaqil fikrlashi, kasbiy refleksiyasi va o‘z-o‘zini rivojlantirish qobiliyatlarini ham shakllantiradi. Shu bilan birga, harbiy ta’lim muassasalarida interaktiv, dialogik va shaxsga yo‘naltirilgan texnologiyalardan foydalanish pedagogik jarayonning samaradorligini sezilarli darajada oshirishi aniqlangan.

Harbiy ta’lim tizimida pedagogik texnologiyalarni qo‘llashning o‘ziga xos jihatlari mavjud bo‘lib, ular harbiy muhitning yopiq tizimi, intizomiy talablarning yuqoriligi hamda amaliy tayyorgarlikka yo‘naltirilganligi bilan belgilanadi. Shu sababli, harbiy pedagogik jarayonni tashkil etishda kompetensiyaviy yondashuv asosida zamonaviy o‘qitish texnologiyalarini ishlab chiqish va joriy etish muhim ahamiyat kasb etadi.

Shuningdek, tadqiqotlar harbiy ta’limda innovatsion yondashuvlar, jumladan, masofaviy ta’lim, raqamli texnologiyalar va “flipped classroom” kabi metodlarning qo‘llanilishi o‘quv jarayonini yanada samarali va moslashuvchan qilishini ko‘rsatmoqda. Bundan tashqari, didaktik o‘yinlar va faol o‘qitish metodlari kursantlarning qaror qabul qilish ko‘nikmalarini rivojlantirishda muhim vosita sifatida xizmat qiladi.

Asosiy qism

O‘zbekiston Respublikasida joriy etilgan uzluksiz ta’lim tizimi shaxsni har tomonlama barkamol va etuk mutaxassis bo‘lib etishishiga qaratilgan. Ta’lim sohasidagi islohotlar jarayonida oliy harbiy ta’lim alohida o‘rin egallaydi. Zamonaviy sharoitda oliy harbiy ta’lim muasasalarida harbiy mutaxassislarni tayyorlash jarayoni aniq bir maqsadga, ya’ni – yuqori professional malakaga va yuksak ma’naviy-axloqiy fazilatlarga ega bo‘lgan ofitser kadrlarni tayyorlash bo‘yicha muhim vazifalarni kafolatli bajarishga qaratilgan.

Bu borada O‘zbekiston Respublikasining Prezidenti, Qurolli Kuchlar Oliy Bosh Qo‘mondoni Sh. Mirziyoev O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari tashkil etilganining 25-yilligi munosabati bilan Vatan himoyachilariga yo‘llagan bayram tabrigida quyidagi fikrlarni bildirganlar; “.... mutloqo yangi Qurolli Kuchlar Akademiyasida leytenantlarni tayyorlash, faoliyat ko‘rsatayotgan ofitserlar malakasini oshirish va shuningdek, armiyamiz boshqaruv tarkibidagi qo‘mondonlik kadrlarni maxsus tayyorgarlikdan o‘tkazishni davom ettirish. Bu vazifalarni amalga oshirishda biz ta’lim jarayoniga yangi usul va texnologiyalarni joriy etishimiz, o‘quv auditoriyalarini zamonaviy trenajyorlar, o‘quv va laboratoriya asbob-uskunalari va kompyuter texnikasi bilan jihozlashimiz lozim. Bundan tashqari, barcha oliy harbiy ta’lim muassasalari professor-o‘qituvchilari tarkibini tayyorlash, jumladan, ularni xorijdagi etakchi oliy ta’lim muassasalarida malaka oshirish imkoniyatlaridan keng foydalanish maqsadga muvofiqdir”[1].

Ushbu vazifalardan kelib chiqib, bugungi kunda mamlakatimizning barcha ta’lim muassasalari kabi, oliy harbiy ta’lim muassasalarida ham ta’lim jarayonini samaradorligini oshirishga, unga ta’limning interfaol uslublarini va yangi pedagogik texnologiyalarni joriy etish masalasiga katta e’tibor qaratilmoqda. Buni hayotning o‘zi taqozo etadi, chunki bugungi yoshlar, talabalar va kursantlar bundan 10-15 yil oldingi yoshlardan, talabalardan intelektual salohiyati va dunyoqarashi bilan keskin farq qiladi. Ularning ilm-fanga, o‘rganishga va yangilikni o‘zlashtirishga bo‘lgan ishtiyoqini bir tomonlama va “quruq” berilgan axborotni etkazish bilan qondirib bo‘lmaydi. Amalda кщrinib turibtiki, bugungi auditoriya aynan yorqin, qiziqarli, sodda va tushunarli tarzda, asoslab havola etilgan axborotni katta ishtiyoq bilan o‘zlashtirmoqda. Ustiga-ustak, fan va texnikaning yuqori sur’atlar bilan rivojlanib borishi ta’lim jarayonini

[1] Мирзиёев Ш.М. Ўзбекистон Республикаси Қуролли Кучлари ташкил этилганлигининг 25 йиллиги муносабати билан Ватан ҳимоячиларига йўллаган байрам табриги// “Халқ сўзи”, 14 январь 2017 йил.

jadallashtirishni, o‘qitishda zamonaviy yangi pedagogik va innovatsion texnologiyalardan kengroq foydalanishni talab qilmoqda.

Darhaqiqat, bunday holat va kadrlar tayyorlashning sifatiga bo‘lgan zamonaviy talablar professor-o‘qituvchilarni, pedagogik kadrlarni, ofitserlarni o‘z ustida doimo ishlab kasbiy malakalarini oshirib borishni, zamon bilan hamnafas bo‘lishni taqozo etadi.

Bu borada muxtaram Prezidentimiz Shavkat Mirziyoev 2019 yilda
1 oktyabr “Ustoz va murabbiylar kuni” munosabati bilan yo‘llagan bayram tabrigida: “Bugungi kun o‘qituvchisi universal mutaxassis, ham o‘rgatuvchi, ham o‘rganuvchi bo‘lishi, ya’ni o‘z ustida tinimsiz ishlashi, doimo izlanib yashashi kerak.... O‘qituvchi chinakam vatanparvar inson bo‘lishi zarur. Qalbida o‘z kasbiga, Vataniga mehr va sadoqat kuchli bo‘lgan o‘qituvchigina haqikiy vatanparvar shaxsni tarbiyalay oladi”, deb alohida ta’kidlaganlar.

Pedagogik texnologiya tushunchasini ta’lim jarayoniga ishlab chiqarish jarayonidan kirib kelganligi, ularning negizida yotgan jarayonlarni o‘xshashligi barchamizga ma’lum. Olim va amaliyotchilar o‘qitishni ishlab chiqarishga oid aniq kafolatlangan natija beradigan texnologik jarayonga aylantirishga qaratilgan ishlari pedagogika fanida “yangi pedagogik texnologiya” yo‘nalishini yuzaga keltirdi.

Zamonaviy pedagoglarning fikr va qarashlaridan kelib chiqqan holda o‘quv jarayonidagi pedagogik texnologiyaga quyidagicha ta’rif beradilar: o‘quv jarayonini tashkil etishda o‘quv dasturi va tinglovchining ehtiyojidan va texnik imkoniyatlardan kelib chiqqan holda bir maqsadga yo‘naltirilgan, oldindan puxta loyihalashtirilgan va kafolatlangan natija berishga qaratilgan aniq ketma-ketlikdagi yaxlit pedagogik jarayondir[2].

Ta’lim jarayonida qo‘llaniladigan interfaol uslublar pedagogik texnologiyani tashkil etuvchi elementi, tarkibiy qismi hisoblanadi.

Bugungi kunda ta’lim jarayonida pedagogik texnologiyalardan foydalanishga alohida e’tibor berilayotganligining asosiy sabablarini quyidagilarda ko‘rishimiz mumkin:

Birinchidan, “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonunda rivojlantiruvchi ta’limni amalga oshirish masalasiga alohida e’tibor qaratilgan bo‘lib, pedagogik texnologiyalardan foydalanish shaxsni rivojlantiruvchi ta’limni amalga oshirish imkoniyatini kengaytiradi.

Ikkinchidan, pedagogik texnologiyalar o‘quv-tarbiya jarayoniga tizimli faoliyat yondoshuvini keng joriy etish imkoniyatini beradi.

Uchinchidan, pedagogik texnologiya o‘qituvchini ta’lim-tarbiya jarayonining maqsadlaridan boshlab, tashxis tizimini tuzish va bu jarayon kechishni nazorat qilishgacha bo‘lgan texnologik zanjirni oldindan loyihalashtirib olishga undaydi.

To‘rtinchidan, pedagogik texnologiya yangi vositalar, uslublar va axborot texnologiyalarning yutuqlarini keng qo‘llashga imkoniyat beradi.

Beshinchidan, pedagogik texnologiya asosida o‘tkazilgan mashg‘ulotlar tinglovchilarni muhim hayotiy yutuq va muammolarga o‘z munosabatlarini bildirishlariga, ularni fikrlashga, o‘z

[2] Ишмухамедов Р., Юлдашев М. Таълим ва тарбияда инновацион педагогик технологиялар. – Т.: Nihol, 2013.

nuqtai nazarlarini asoslashga, shuningdek, mustahkam hayotiy pozitsiyani shakllantirishga xizmat qiladi.

Harbiy pedagogik jarayonga pedagogik texnologiyalarni joriy etilishi tinglovchilarning o‘qishga bo‘lgan munosabatini faollashtirish bilan tavsiflanadi. Faollashtirishning asosiy maqsadi esa, o‘quv-tarbiyaviy jarayonning sifatini ko‘tarish, mustaqil o‘z fikrini bildirishga, uni asoslashga undashdir. Eng muhimi, shu orqali biz harbiy xizmatchilarimizni jangovar vaziyatlarda faollik ko‘rsatishga, mustaqil qaror qabul qilishga o‘rgatamiz.

Harbiy-pedagogik jarayonda faollashtirishning turli yo‘llaridan foydalaniladi: o‘qitish shakli, uslublari va vositalarining turli-tuman bo‘lishi, ular ro‘y berishi mumkin bo‘lgan vaziyatlarda tinglovchilarning mustaqil faoliyatini ta’minlaydigan birligini tanlash faollashtirishning asosiy yo‘laridan hisoblanadi.

Tinglovchilarning quyidagi vaziyatlardagi faoliyati mashg‘ulotlarda ularning faolligini oshirishda yuqori samara beradi:

- o‘z fikrini himoya qilish;
- muhokama va munozaralarda ishtirok etish;
- o‘rtoqlari va o‘qituvchilariga savollar berish;
- o‘rtoqlarining javoblarini taqrizlash;
- o‘rtoqlarining og‘zaki va yozma javoblarini baholash;
- o‘zlashtirishi past bo‘lgan tinglovchilar bilan ishlash, ular tushunmaydigan joylarni tushuntirish;
- o‘zining kuchi etadigan topshiriqni o‘zi tanlashi;
- bilishga oid topshiriq (muammo)ning bir necha variantli javobini topish;
- o‘z-o‘zini tekshirish, shaxsiy bilim va amaliy faoliyatini o‘zi tekshirish vaziyatlarini yaratish;

- ma’lum bo‘lgan bir necha usullarni birgalikda qo‘llab masalani echish.

Shuni ta’kidlash lozimki, mustaqil o‘qishning yangi texnologiyalari, eng avvalo tinglovchilar faolligini oshirishga qaratilgandir. Zero, shaxsiy intilish, mashaqqat bilan topilgan haqiqat bilish jirayonida juda katta ahamiyatga ega bo‘ladi.

O‘quv-tarbiya jarayonida pedagogik texnologiyalarning to‘g‘ri joriy etilishi o‘qituvchining bu jarayonda asosiy tashkilotchi yoki maslahatchi sifatida faoliyat yuritishga olib keladi. Bu esa o‘quvchidan ko‘proq mustaqil ishlash, ijod qilish, fikr-mulohaza yuritish, tirishqoqlik va iroda kabi sifatlarni talab etadi.

Pedagogik texnologiyaning ilmiy asosi bo‘lib oliy pedagogika maktabi va uning muhim bo‘limi – o‘qitish uslubi sanaladi. O‘qitish uslubi va pedagogik texnologiya o‘rtasida o‘zoro nisbat nimada ko‘rinadi, deganda, quyidagicha javob berishimiz mumkin.

O‘qitish uslubiyati, aniq tarixiy sharoitda ta’limning qonuniyatlarini o‘rganar va “qanday o‘qitish” to‘g‘risida tavsiyalar ishlab chiqib, muhim amaliy vazifani hal etish - u yoki bu o‘quv fanda qo‘llaniladigan pedagogik jarayonni ilmiy asoslash imkonini beradi. O‘z o‘rnida, pedagogik texnologiya, ushbu asosni qo‘llagan holda aniq pedagogik jarayonni loyihalashtiradi, uning protsessual va hisob-analitik komponentlarining sifat va miqdor parametrlarini belgilaydi. Texnologiya aniq ta’lim-tarbiya jarayonini va talabaning rivojlanishini real o‘quv sharoitidan kelib chiqqan holda optimallashtiradi.

Harbiy qism va bo‘linmalardagi real vaziyat, vazifalar ko‘lamini oshib borishi o‘quv-tarbiyaviy jarayon (jangovar va ma’naviy-ma’rifiy tayyorgarlik)ni samaradorligiga zarar etkazmasdan uni optimallashtirishni talab qiladi. Shu bilan birga milliy armiyamizning zamonaviy qurol-aslaha va texnika bilan bosqichma-bosqich ta’minlanishi, uning jangovar tarkibi va tuzilishidagi o‘zgarishlar, qurolli to‘qnashuvlarning o‘zgarib borayotgan xususiyatini hisobga olgan holda, mutaxassisliklar tarkibi, harbiy fanlarni o‘qitishning metod va texnologiyalari hamda o‘quv dasturlari ro‘yxatini doimiy tarzda yangilab, ularga aniqlik kiritib borishni talab qiladi.

O‘qitish metodlari haqida so‘z borganda uning og‘zaki, yozma, ko‘rgazmali va amaliy turlariga bo‘lish bilan bir qatorda, ularni maqsadlariga qarab ham quyidagicha bo‘lish mumkin.

- o‘quvchilarni faollashtirishga yo‘naltirilgan uslublar;
- yakka, juft, guruh bilan ishlashga yo‘naltirilgan uslublar;
- video va multimedia uslublar;
- muammolarni echishga qaratilgan uslublar;
- o‘zaro hamkorlikda ishlashga yo‘naltirilgan uslublar;
- matn bilan ishlash orqali amalga oshiriladigan interfaol uslublar;
- har xil chizmalar yordamida amalga oshiriladigan faol uslublar;
- passiv va interaktiv uslublar.

Ta’limning faol uslublarini ham o‘z o‘rnida uslubiy jihatdan imitatsiyali va immitatsiyasizlariga ajratish maqsadga muvofiq.

Immitatsiyali uslublarda o‘quvchi mashg‘ulot davomida o‘zini boshqa mansabdor shaxs rolida (brigada komandiri, uning o‘rinbosarlaridan biri yoki xizmat boshlig‘i va h.k) tasavvur etadi yoki shu rolni mansabdor shaxs obrazida bevosita bajaradi. Ularga keskin vaziyat tahlili va ishbilarmonlik o‘yinlarini kiritishimiz mumkin. Amaliyotda o‘tkaziladigan qo‘mondonlik shtab mashqlari bunga yaqqol misol bo‘la oladi.

Imitatsiyasiz uslublar davomida o‘rganuvchi mashg‘ulotda o‘z o‘rnida qolib tinglovchi nuqtai nazaridan muammoga nisbatan o‘z fikrlarini bildirish bilan kechadi. Dialog, muammoli savollarni qo‘yish, aqliy hujum, muammo, elpig‘ich, bumerang, loyiha, aylana stol, idrok xaritasi va boshqalar immitatsiyasiz uslublarning bir qismini tashkil etadi xolos. Ularning har birini chuqur o‘rganish uchun maxsus adabiyotlarga murojaat qilgani maqsadga muvofiq.

Xulosa sifatida aytib o‘tish joyizki, har qanday pedagogik texnologiya va interfaol uslublar avvalo, ta’lim-tarbiya samaradorligini, tinglovchilarni o‘qishga bo‘lgan qiziqishini oshirishga, yuqori malakali harbiy mutaxassislarni tayyorlashga va oxir-oqibat qo‘shinlarning jangovar shayligi va tayyorgarligini yangi bosqichga ko‘tarishga xizmat qilishi lozim.

Ushbu ishlarning asosiy ko‘rsatkichi bo‘lib, albatta, ta’lim oluvchilarning, bitiruvchilarning chuqur bilimi, ko‘nikma va yuqori malakaga ega bo‘lishlari, o‘quv-jangovar faoliyatda erishilgan yutuqlari, mustahkam nizomiy tartib va bo‘linmalardagi sog‘lom axloqiy-ruhiy muhitni shakllanganligi deb bilishimiz darkor.

1-jadval.

Harbiy-pedagogik faoliyatda zamonaviy pedagogik texnologiyalar samaradorligining qiyosiy statistik tahlili


№	Pedagogik texnologiya turi	Qo‘llanilgan soha	Asosiy natija	Samaradorlik ko‘rsatkichi
1	Interaktiv va dialogik metodlar	Harbiy oliy ta’lim	Talabalarda refleksiya va mustaqil fikrlash rivojlandi	↑ 25–35% samaradorlik
2	Flipped classroom (teskari sinf)	Harbiy tayyorgarlik kurslari	O‘quv materialini o‘zlashtirish darajasi oshdi	↑ 20–30% yaxshilanish
3	Raqamli va masofaviy ta’lim texnologiyalari	Harbiy tibbiy va texnik ta’lim	Moslashuvchanlik va tezkor o‘qitish ta’minlandi	↑ 30–40% samaradorlik
4	Didaktik o‘yinlar	Harbiy institutlar	Qaror qabul qilish va motivatsiya oshdi	↑ 15–25% rivojlanish
5	Kompetensiyaviy yondashuv	Harbiy kadrlar tayyorlash	Kasbiy kompetensiyalar shakllandi	↑ 25–30% samaradorlik
6	Interaktiv va AKT asosidagi metodlar	Harbiy o‘qituvchilar tayyorlash	Pedagogik tayyorgarlik darajasi oshdi	Yuqori natija (eksperimental guruhlarda sezilarli o‘sish)

Manba: Zamonaviy pedagogik texnologiyalar (interaktiv metodlar, raqamli ta’lim va kompetensiyaviy yondashuv) harbiy ta’lim samaradorligini oshirishi ilmiy jihatdan isbotlangan malumotlar muallif tomonidan shakllantirildi.

Jadvalda keltirilgan ma’lumotlar shuni ko‘rsatadiki, harbiy-pedagogik faoliyatda zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo‘llash o‘quv jarayonining samaradorligini sezilarli darajada oshiradi. Xususan, raqamli texnologiyalar va masofaviy ta’lim vositalari eng yuqori natijalarni berib, o‘quv jarayonini moslashuvchan va tezkor tashkil etishga xizmat qiladi.

Shu bilan birga, interaktiv, dialogik va faol o‘qitish metodlari kursantlarning mustaqil fikrlashi, refleksiyasi hamda kasbiy rivojlanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Didaktik o‘yinlar va innovatsion metodlar esa ayniqsa amaliy ko‘nikmalarni shakllantirishda muhim vosita sifatida namoyon bo‘ladi.

Bundan tashqari, kompetensiyaviy yondashuv asosida tashkil etilgan ta’lim jarayoni harbiy mutaxassislarning kasbiy tayyorgarligini kompleks rivojlantirishga xizmat qiladi. Umuman olganda, pedagogik texnologiyalarni tizimli va maqsadli qo‘llash harbiy ta’lim sifatini oshirishning asosiy omillaridan biri hisoblanadi.



1-rasm. Harbiy-pedagogik faoliyatda pedagogik texnologiyalar samaradorligining qiyosiy ko‘rsatkichlari.

Manba: Muallif tomonidan (Prosvetova, 2020), (Kosonen et al., 2023), (Halkina & Andriievska, 2024), (Ruban, 2020), (Mirshuk & Radvanskyi, 2018) tadqiqotlari asosida tuzilgan.

Diagrammada keltirilgan natijalar shuni ko‘rsatadiki, harbiy-pedagogik faoliyatda zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo‘llash o‘quv jarayonining samaradorligini sezilarli darajada oshiradi. Ayniqsa, raqamli texnologiyalar eng yuqori ko‘rsatkichni namoyon etib, o‘quv jarayonini individuallashtirish, tezkor axborot almashinuvi va masofaviy ta’limni samarali tashkil etish imkonini beradi.

Interaktiv va dialogik metodlar ham yuqori samaradorlikka ega bo‘lib, ular kursantlarning mustaqil fikrlash, muammoli vaziyatlarni hal qilish va refleksiv yondashuvlarini rivojlantirishda muhim rol o‘ynaydi. Bu metodlar harbiy ta’limda faollikni oshirib, tinglovchilarning o‘quv jarayonidagi ishtirokini kuchaytiradi.

Kompetensiyaviy yondashuv esa harbiy mutaxassislarni tayyorlashda kompleks yondashuvni ta’minlab, ularning kasbiy bilim, ko‘nikma va shaxsiy sifatlarini uyg‘un rivojlantirishga xizmat qiladi. Bu esa zamonaviy harbiy faoliyat talablariga mos kadrlar tayyorlash imkonini beradi.

Shuningdek, “flipped classroom” texnologiyasi o‘quv jarayonini optimallashtirib, nazariy bilimlarni mustaqil o‘zlashtirish va amaliy mashg‘ulotlarga ko‘proq vaqt ajratish imkonini yaratadi. Didaktik o‘yinlar esa nisbatan pastroq ko‘rsatkichga ega bo‘lsa-da, ular kursantlarning motivatsiyasini oshirish, tezkor qaror qabul qilish va real vaziyatlarga moslashuv ko‘nikmalarini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Xulosa

Harbiy-pedagogik faoliyatda zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo‘llash ta’lim samaradorligini oshirishning muhim omili hisoblanadi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, raqamli texnologiyalar, interaktiv metodlar va kompetensiyaviy yondashuv kursantlarning bilim, ko‘nikma va kasbiy tayyorgarligini rivojlantirishda yuqori natija beradi.

Shu bilan birga, pedagogik texnologiyalarni tizimli va maqsadga muvofiq joriy etish harbiy ta’lim sifatini oshirish, zamonaviy talablarga javob beradigan malakali kadrlarni tayyorlash hamda o‘quv jarayonini yanada takomillashtirishga xizmat qiladi.

Umuman olganda, diagramma natijalari shuni tasdiqlaydiki, harbiy ta’lim tizimida pedagogik texnologiyalarni kompleks va tizimli ravishda qo‘llash ta’lim sifati va samaradorligini oshirishning asosiy omillaridan biri hisoblanadi.

Amaliy takliflar:

1. Harbiy ta’lim muassasalarida raqamli pedagogik texnologiyalarni keng joriy etish, xususan, masofaviy ta’lim platformalari va simulyatsion dasturlardan foydalanishni rivojlantirish (Halkina & Andriievska, 2024).
2. O‘quv jarayonida interaktiv va dialogik metodlardan muntazam foydalanish, kursantlarning mustaqil fikrlashi va faol ishtirokini oshirish (Prosvetova, 2020).
3. Harbiy mutaxassislarni tayyorlashda kompetensiyaviy yondashuvni takomillashtirish, nazariy bilim bilan bir qatorda amaliy ko‘nikmalarni uyg‘un rivojlantirish (Mirshuk & Radvanskyi, 2018).
4. Ta’lim jarayoniga innovatsion metodlarni (flipped classroom, didaktik o‘yinlar) joriy etish orqali o‘quv samaradorligini oshirish (Kosonen et al., 2023).
5. Harbiy o‘qituvchilarning pedagogik va axborot texnologiyalari bo‘yicha malakasini oshirish, ularni zamonaviy metodlarga moslashtirish (Medvid et al., 2021).
6. O‘quv jarayonida baholash tizimini takomillashtirish, natijalarni kompetensiya asosida monitoring qilish va tahlil qilishni yo‘lga qo‘yish.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mirziyoev Sh.M. O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari tashkil etilganligining 25 yilligi munosabati bilan Vatan himoyachilariga yo‘llagan bayram tabrigi // “Xalq so‘zi”, 14 yanvar 2017 yil.
2. Mirziyoev Sh.M. 1 oktyabr “Ustoz va murabbiylar kuni”ga bag‘ishlangan bayram tabrigi // “Xalq so‘zi”, 1 oktyabr 2019 yil.
3. Ishmuxamedov R., Yuldashev M. Ta’lim va tarbiyada innovatsion pedagogik texnologiyalar. – T.: Nihol, 2013.
4. Satib-Aldiev A.A. Ta’limning faol shakl va metodlari. – T.: Toshkent OUQBYu, 2007. – 189 b.
5. Prosvetova T.S. Modern Educational Technologies as Effective Means of Psychological and Pedagogical Training of Military-Technical University Adjuncts.
6. Kosonen J., Vekkaila J., Pullinen H. Flipping Army Conscripts’ Training with the Support of ADL Learning Assets // Scandinavian Journal of Military Studies, 2023.
7. Halkina T., Andriievska V. The Potential of Digital Technologies in Improving the Process of Training Military Specialists // 2024.
8. Ruban Yu.A. Application of Didactic Games in Military Pedagogy // 2020.